

JAN JAK RUSSO IJODIDA MA'RIFATPARVARLIK G'OYALARI

Akmalova Bonu Akmal qizi

Buxoro davlat universiteti

Filologiya fakulteti 3-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Jan Jak Russoning ziddiyatlarga to'la hayoti hamda uning sermahsul ijodi haqida ma'lumotlar yozilgan. Jan Jak Russo o'z asarlarida asosan ma'rifatparvarlik g'oyalarini aks ettirgan. Ma'rifatparvarlik g'oyasi aks etgan “Xalq baxti” risolasi haqida ma'lumotlar yozilgan.

Kalit so'zlar: Jan Jak Russo, ma'rifatparvarlik, “Xalq baxti”, ozodlik, romantizm.

ENLIGHTENMENT IDEAS IN THE WORKS OF JEAN JACQUES ROUSSEAU

ABSTRACT

Information is written about the conflicted life of Jean Jacques Rousseau and his prolific work. Jean Jacques Rousseau mainly reflected the ideas of the Enlightenment in his works. The Enlightenment idea is reflected in "People's happiness".

Key words: Jean Jacques Rousseau, enlightenment, "People's happiness", freedom, romanticism.

Jan Jak Russo (Ermenonvil), Parij yaqinida tug'ilgan–Fransuz faylasuf-ma'rifatparvari, yozuvchisi, kompozitori. Fransuz sentimentalizmining yirik vakili. Malay, xattot, murabbiy, musiqa o'qituvchisi va boshqa ishlarda ishlagan. Parijda D. Didro rahbarligida tayyorlangan ensiklopediyaga musiqaga oid maqolalar yozgan.

1741 yilgacha Shveysariyada yashagan, keyin Parijga ketgan 1762 yili «Emil, ya’ni Tarbiya to’g’risida» nomli pedagogik romani va «Ijtimoiy shartnoma to’g’risida» siyosiy risolasi chop etilgach, dindorlar tomonidan taqibga olingan Russo Fransiyani tark etgan. 1770 yili u yana Parijga qaytib kelib notalarni ko’chirish bilan shug’ullangan. «Fanlar va san’atlar haqida mulohazalar» (1750) asarida tengsizlik va zulmga asoslangan o’z davridagi tamaddunni tanqid qilib, uning o’rniga «tabiiy holat»ni qo’ygan.

Uning g’oyalari keyinchalik «Odamlar orasida tengsizlikning kelib chiqishi va asoslari haqida mulohaza» (1755) asarida o’z ifodasini topgan. «Ijtimoiy shartnoma to’g’risida» risolasida (1762) ideal jamiyat manzarasini tasvirlagan. Russo ingliz parlamentarizmini qoralab, xalq suverenitetini, xalq hokimiyatini himoya qilgan. Pedagogika masalalariga bag’ishlangan «Emil, ya’ni Tarbiya haqida» (1762) asarida sxolastik ta’lim va tarbiya usullarini tanqid qilgan, maktabning eng birinchi vazifasi haqiqiy inson va fuqaroni tarbiyalashdir deb uqtirgan. Bolalarda mustaqil fikrlash tarafdori bo’lgan.

Russoning asarlari («Harbiy asirlar», 1743; «Yuliya, ya’ni Yangi Eloiza», 1761; «Iqror», 1766—69; «Yolg’iz xayolparastning sayri», 1777—78 va b.) Yevropa adabiyotida psixologizmning vujudga kelishiga sabab bo’lgan. She’rlar, dostonlar, operalar («Qishloqlik jodugar», 1752—53) yozgan, bir pardali lirik sahna asari «Pigmalion» — melodramaning ilk namunasi hisoblanadi. Russo g’oyalari ko’pgina mamlakatlar ijtimoiy tafakkuriga va adabiyotiga ta’sir ko’rsatgan.

Russo tabiatan g’oyat ta’sirchan va hassos edi. Bu hassoslik uning asarlarida, qarashlarida o’z aksini topadi. Uning qarashlari Yevropada romantizm g’oyalarini shakllantirishga ulkan ta’sir ko’rsatgan. U inson tabiatidagi hissiyotlarni, rango-rang tuyg’ularni, ehtirolarni ratsional aqldan ustun ko’radi. Uning deyarli barcha asarlari sivilizatsiyaga muxolif ruhda yozilgan. Shuningdek yozuvchining Dijon akademiyasida “Ilm-fan taraqqiyoti insoniyatga nima berdi?” mavzusida maqolalar tanlovini e’lon qiladi. Russoning mazkur mavzudagi maqolasi akademiyaning mukofotiga loyiq, deb topiladi. Bu maqola unga katta shuhrat keltiradi. Russo ilm-fan

taraqqiyoti insoniyatni baxt-saodatga emas, aksincha, halokatga olib borayotganini ta’kidlaydi. Uning fikriga ko‘ra, shuhratparastlik, hashamdorlik asosiga qurilgan fan va san’atning taraqqiyoti insondagi barcha muqaddas hislarning aynishiga, toptalishiga sabab bo‘ladi. Russoning bu boradagi o‘ziga xos goyalari boshqalardan ajratib turadi. Umuman olganda, Russoning ko‘plab g‘oyalari keyingi davr falsafiy, siyosiy, badiiy qarashlariga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Russoning “Xalq baxti” nomli risolasi tahsinga loyiqdir. Menimcha, ushbu asar haqiqiy ma’rifatparvar yozuvchining xalqiga bo‘lgan mehr-muhabbatini oshkora namoyon qilishdir. Ushbu asar orqali ijodkor o‘z xalqining ongiga haqiqiy baxt nima ekanligini singdirishga harakat qiladi, lekin, hattoki, yozuvchining o‘zi ham “haqiqiy baxt” nimaligini bilmas edi. Balki, shuning uchundir yozuvchi baxtni barcha narsalarga qiyoslaydi, barcha narsalardan izlaydi. Yozuvchi ushbu asari orqali nima demoqchi? Hech o‘ylab ko‘rganmisiz “Baxt” o‘zi nima ekanligini, siz uchun baxt nimalar ekanligini? “Xalq baxti” nomli risolada ham yozuvchi, menimcha, xuddi shunday savolni xalqiga, butun olamga berishga urinib ko‘rgan. Hamda yozuvchining aytishicha, ushbu savolning javobini qisman topgan. Xalq qachon baxtli bo‘ladi deb o‘ylaydi va uning javobi hech qachon bo‘ladi. Chunki, Rimda shunday hukmdor bo‘ladiki, xalqining baxti uchun hamma narsaga tayyor, xalq baxtli bo‘lsa u ham o‘zini baxtli hisoblardi va hattoki, u xalqiga baxtli bo‘lishi uchun hamma narsalarni muhayyo qilib qo‘ygan edi. Afsuski, bu xalq shundan ham norozi edi. Bir kuni hukmdor xalqining qanchalik baxtli ekanini sinab, solishtirib ko‘rish uchun bosh olib ketadi. Shunda u ketishi bilan xalq o‘zining hayotidan noliy boshlaydi, ammo bilmaydiki ularning hukmdori boshqa nochor xalqlar orasida yurib o‘zining xalqi naqadar baxtli ekanligini. Uning xalqiga hamma narsalar muhayyo bo‘lsa ham, xalq baribir norozi edi. Shundan keyin podshoh qancha qilmasin xalq hech qachon rozi bo‘lmasligini biladi. Shuning uchun baxtni har qanday yo‘l bilan ham majburlab insonlarga berolmaymiz. Xalq qay usulda baxtli bo‘lishini tushunish uchun baxtsizlarning ahvolini ham yaxshi o‘rganish kerak. Baxtli bo‘lish uchun nimalar yetishmasligini aniqlash bilan birga baxtli odam nimalarga ega bo‘lishini ham bilib olamiz. Xalq baxti

nimalardan iborat ekanligini aniqlash uchun odamlarning bu haqdagi fikrlarini jamlash yetarli bo‘lmasa kerak. Xalqning farovonligi juda ko‘p narsalarga bog‘liq, alohida shaxslarning farovonligini aniqlash ham unchalik oson emas. Binobarin, bu borada adashmaslik uchun juda ko‘p me‘yorlarni bir-biridan alohida ajratish lozim. Xalq baxtining o‘ziga xos xususiyatlarini bildiruvchi haqiqiy mezonlarni to‘g‘ri belgilash kerak. Jan Jak Russo ushbu risolasining boshlanishida shundayday deydi: “Men haqiqatni shunga munosib ravishda ro‘y-rost aytaman. Soddalikdan jirkanadigan, samimiylikka nafrat bilan qaraydigan ko‘rqoq o‘quvchilar, kitobimni yopib qo‘ying, siz uchun yozilmagan u. Yovuz qalbingizni qanoatlantira oladigan haqiqatnigina qadrlaydigan zaharxanda o‘quvchilar, kitobimni yopib, uni uloqtirib tashlang, chunki qidirayotgan narsangizni undan topa olmaysiz, mabodo o‘qisangiz muallifning sizga bo‘lgan nafratini uqib olasiz.

Ezgulikni qadrlaydigan, do‘st-birodarlarini yaxshi ko‘radigan, ularning xatolaridan afsuslanib, illatlaridan nafratlanib yuradigan, insoniyat boshiga kulfat tushsa, undan qayg‘uradigan, eng asosiysi, kamolotga intilayotgan odam ushbu kitobni bemalol o‘qishi mumkin. U qalblardan aks-sado topadi.

O‘z fikrimning o‘zimga yoqishi quvontiradi. Qachonlardir, qaysidir bir davlat arbobi tom ma‘noda Fuqaro bo‘lib yetishsa, u faqatgina o‘zidan oldingi rahbarning qonunlarini bekor qilish bilangina shug‘ullanmasdan balki xalq ahvolini yaxshilash, uning farovonligini oshirish haqida qalbdan o‘ylaydi. U quruq va‘dalar bilan cheklanib qolmasdan, amalda harakat qiladi, xalq manfaatlarini oyoqosti qilmasdan, faqatgina o‘z mavqeini mustahkamlamasdan, hokimiyatini xalq baxt-saodati yo‘lida xizmat qilishga qaratadi. Baxtli tasodif tufayli ushbu kitob qo‘liga tushib qolsa mening noaniq fikrlarim uni foydali ishlarga jalb qiladi, insonlarni yaxshiroq, baxtliroq bo‘lishiga xizmat qiladi, men esa bu ishlarga aloqador bo‘lib qolaman, deb orzu qilaman. Ushbu orzu meni qo‘limga qalam olishga rag‘batlantirdi. Oradan yillar o‘tib nomim adabiyot yilnomalaridan o‘chib ketgan taqdirda ham, mayli, ushbu kitobim notanish va bechorahol, lekin dono va baxtli xalq mulki bo‘lib qolsin. Ular shon-shuhrat va g‘alaba ketidan quvmasdan, ushbu kitobni mamnuniyat bilan ba‘zi-ba‘zida o‘qib tursin”.

Ushbu risola orqali ijodkor xalqini ma’rifatga chorlaydi, ularni o‘z baxtlarini topishlarini xohlaydi. Haqiqiy baxtni ma’rifat orqali topish mumkinligini, buning uchun davlatga tobe bo‘lib qolmasdan, o‘z dunyosi orqali his qilishini xohlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Jan Jak Russo “Xalq baxti haqida” risolasi Abdunabi Abduqodirov tarjimasi.
2. <https://saviya.uz/hayot/mashhurlar-hayoti/jan-jak-russo/>
3. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-nasri-onlayn-antologiyasi/jan-jak-russo-1712-1778-fransiya>
4. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-nasri-onlayn-antologiyasi/jan-jak-russo-1712-1778-fransiya/jan-jak-russo-xalq-baxti-haqida-falsafiy-risola>

